

TA'LIM SIFATINING MENEJMENTI

Mo'minova Ma'fura Murodjonovna

Beshariq tumani maktabgacha va maktab
ta'limi bo'limi tasarrufidagi 35-sonli Davlat
maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori
e-mail: mafura1980@gmail.com,
Tel:+998711214606

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifati tushunchasi, uning nazariy-mantiqiy asoslari, ichki monitoring jarayonlari va ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida sifat menejmentining ahamiyati, asosiy tamoyillari, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tatbiqi yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sifatni boshqarish ta'lim jarayonini optimallashtirish, pedagoglar faoliyatini takomillashtirish hamda ta'lim muhitini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab berildi.

Abstract: This article examines the concept of educational quality, its essence, theoretical foundations, mechanisms of internal monitoring, and the factors influencing quality in education. Special attention is paid to the principles of quality management in preschool education and the use of artificial intelligence and blockchain technologies. The findings indicate that quality management is a crucial component for optimizing the educational process, improving teacher performance, and enhancing the learning environment.

Аннотация: В статье анализируются понятие качества образования, его сущность и теоретические основы, механизмы внутреннего мониторинга и факторы, влияющие на качество образования. Особое внимание уделено принципам менеджмента качества в дошкольном образовании, а также применению технологий искусственного интеллекта и блокчейна в образовательной среде. В результате исследования обосновано, что управление качеством является ключевым условием совершенствования образовательного процесса и повышения эффективности педагогической деятельности.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, sifat menejmenti, ichki monitoring, baholash, pedagogik kvalimetriya, sun'iy intellekt, blokcheyn, maktabgacha ta'lim.

Kirish: Ta'lim sifati bugungi kunda har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, inson kapitalining shakllanishi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida hal qiluvchi omillardan biridir. Ta'lim sifati tushunchasiga doir turli ilmiy manbalarda yagona yondashuv mavjud bo'lmasada, olimlarning aksariyati uni ta'lim jarayonidan kutilayotgan natijalarning amalga oshish darajasi sifatida izohlaydi (G.S. Kovaleva, M.B. Melnikova, E.M. Korotkov).

Ta'lim sifati-bu ta'lim natijalarining belgilangan maqsadlarga mosligi, shuningdek, ta'lim jarayonining subyektiv (o'quvchi/ota-ona qoniqishi) va obyektiv (ijtimoiy samaradorlik) jihatlar uyg'unligidir. Bugungi ta'lim tizimida sifatni boshqarish va uni takomillashtirish jarayonlari ichki monitoring, resurslarni boshqarish, pedagog kompetensiyasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liq.

Mazkur maqola ta'lim sifatining nazariy asoslari, sifatga ta'sir qiluvchi omillar, ichki monitoringning mazmuni, shuningdek, maktabgacha ta'limda sifat menejmenti tamoyillari va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishini ilmiy adabiyotlar asosida yoritadi.

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda nazariy tahlil qilinib, Tolipova tomonidan taklif etilgan pedagogik kvalimetriya nazariyasi, Jalilovning baholash nazariyasi, Scheerens va Glasning ta'lim sifatiga tizimli yondashuvi asos qilib olindi. [1]. [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-son va 470-son qarorlari asosida ichki monitoringning huquqiy asoslari o'rganildi. Ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillar resurslar - jarayon - natija modeli asosida baholandi. [7] [8].

Sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rni xalqaro tajribaga asoslangan holda o'rganildi. [4].

Ta'lim sifati murakkab ilmiy kategoriya bo'lib, u turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Umumiy sifat tushunchasi ehtiyojlarni qondira oluvchi xususiyatlar majmuasini anglatadi, ta'lim sifati bu mazmunning ta'lim jarayoniga moslashtirilgan ko'rinishidir. Kovaleva va Melnikova ta'kidlaganidek, ushbu tushunchaning yagona ilmiy ta'rifi yo'qligi uning o'lchovchanligi va baholanishi borasidagi metodologik murakkabliklar bilan bog'liq.

D. Sh. Matros va uning ilmiy hamkorlari ta'lim sifatini "maqsad va natija o'rtasidagi moslik darajasi" sifatida baholaydi. Bu yondashuvda sifat – o'quv jarayonining samaradorlik darajasini aniqlovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Korotkov esa ta'lim sifatining mazmunini yanada kengaytirib, uni kasbiy kompetensiyalar va kasbiy ongning shakllantirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu fikrlar ta'lim sifatini faqat bilim bilan emas, balki kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bilan ham bog'liq murakkab tizim sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy yondashuvni qo'llagan Shishov va Kalney ta'lim sifatini jamiyat ehtiyojlariga muvofiqlik tamoyili bilan izohlaydi. Bu esa ta'lim sifati individual va ijtimoiy talablarga bir vaqtning o'zida javob berishi lozimligini anglatadi. Bestujev-Lada tomonidan taklif qilingan subyektiv va obyektiv jihatlar esa ta'lim sifatining ko'p qirrali tabiatini yanada aniqroq yoritadi.

Tadqiqotchilar ta'lim sifatini uch asosiy komponent orqali baholashni taklif qiladilar:

1. Ta'limga kiritilayotgan investitsiyalar (resurslar),
2. Ta'lim jarayonining tashkil etilishi,
3. Ta'lim natijalari.

Bu struktura ta'lim sifatining tizim sifatida ko'rilishini va uning samaradorligi resurslar, jarayon va natijalarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Umumlashtirilgan holda, ta'lim sifati — bu ta'lim jarayonining shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy ehtiyojlarga mos keluvchi natijalarni yaratish qobiliyati, ya'ni ta'limdan kutilgan maqsadlarning amalga oshish darajasi bilan belgilanadigan murakkab tizimli tushunchadir.

Maktabgacha ta'limda sifat menejmenti prinsiplari: Maktabgacha ta'limda sifat menejmenti ta'lim jarayonining samaradorligi va bolalarning rivojlanish dinamikasini ta'minlaydigan tizimli yondashuv hosoblanadi. Uning asosiy prinsiplari, avvalo, **mijozga yo'naltirilganlik** tamoyiliga tayanib, bolalar va ota-onalarning ehtiyojlarini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. **Yetakchilik** va samarali boshqaruv tashkilotning strategik rivojlanishini belgilab, innovatsion qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi.

Xodimlarning ishtiroki tamoyili pedagoglarning malakasi va motivatsiyasi sifatini belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. **Jarayonlarga yo'naltirilganlik** ta'limning barcha bosqichlarini tizimli boshqarishni, **davomiy rivojlanish** esa jarayonni uzluksiz tahlil va takomillashtirishni talab qiladi. **Qulay muhit yaratish** - bolaning xavfsizligi, psixologik farovonligi va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitda **innovatsiyalarni joriy etish** va **inklyuzivlik** prinsiplari ta'limning raqamli, ekologik va ijtimoiy adolatga asoslangan modelini shakllantiradi. Ushbu prinsiplar uyg'unligi maktabgacha ta'lim sifatini oshirib, bolalarning har tomonlama rivoji uchun barqaror tizim yaratadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ta'lim sifatini boshqarish - o'quv jarayonining natijaviyligini oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va ta'lim muhitini takomillashtirishga xizmat qiluvchi kompleks tizimdir. Ichki monitoring, sifatni baholashning ilmiy asoslari, resurslar bilan ta'minlanganlik va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. TDPU. – Toshkent. 2017. 8 bet
2. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. “Akadernashr” nashriyoti. 2022. –B. 252
3. Matyakubova Z.N. O'quvchilar bilimni baholashda ko'p tanlov javobli test toshiriqlaridan foydalanish metodi (umumiy biologiya misolida): ped.fan.nomz. ... dis. –T.: 2000. – 132 b.
4. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.
5. Jaap Scheerens. Cees Glas, Sally M.Thomas. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.
6. Pedagogika ensiklopediyasi. I–III jildlar. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-3137130>
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi 2019-yil 07-iyundagi 470-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4367782>